

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024 1-SON**  
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>D.G'.Mo'minov, X.O.Abdinazarova</b>	
Tabiiy landshaftlardan iqtisodiy – ijtimoiy geografik foydalanishning bazi masalalari .....	144
<b>M.O.Gopirov</b>	
Изменения в территориальной структуре автомобильной промышленности США .....	148
<b>Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev</b>	
Ershi shahrining yuzaga kelishi va rivojlanishda geomorfologik omillarining o'rni va ahamiyati .....	153
<b>K.M.Mahmudov, X.T.Egamberdiyev, G.X.Xolbayev, S.M.Muminova</b>	
Iqlim o'zgarishi sharotida havo harorati hamda atmosfera yog'inlarining o'zgarishini baholash (Andijon viloyati bo'yicha) .....	157
<b>O.I.Abdug'aniyev, Z.I.Mamirova, N.A.Ahmadjonova</b>	
Yer tuzish ishlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni loyihalashtirish va asoslash.....	167
<b>A.M.Toshpo'latov, Sh.Z.Jumaxanov</b>	
Anklav hududlarni geografik tadqiq etishning konseptual asoslari.....	172
<b>D.R.Eshmirzayev, G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev</b>	
Iqlim o'zgarishi sharotida havo haroratining davrlar bo'yicha o'zgarishini baholash (Samarqand viloyati misolida) .....	180
<b>E.G'.Mahkamov, Sh.Sh.Hakimova</b>	
Tabiatdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning tarixiy-ekologik jihatlari .....	186
<b>Y.I.Ahmadaliyev, B.S.Tojidinov, X.I.Saidova</b>	
Yer resurslarini majmuali tadqiq etishga geografik yondashuvning zarurati.....	190
<b>N.O'.Komilova</b>	
Etnoekologik tadqiqotlarning ijtimoiy-geografik yo'nalishlari va bosqichlari.....	195
<b>Y.I.Ahmadaliyev, P.S.Otaqulov, A.E.Madraximov</b>	
Geografik terminlarning tabiatni muhofaza qilishdagi o'rni va ahamiyati.....	199
<b>Z.A.Temirov, D.A.Turg'unboyeva</b>	
Tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta'siri.....	206
<b>O.I.Abdug'aniyev, M.M.Qahhorova</b>	
Tayanch ornitologik hududlarini muhofaza qilishning ekologik-geografik jihatlari.....	212
<b>M.M.Atajonov</b>	
Andijon viloyati qishloq joylarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning ba'zi bir masalalari .....	217
<b>A.A.Isayev, S.A.Ergashev</b>	
Andijon viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan sikkili ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish .....	220
<b>M.N.Dehqonboyeva, M.R.Mahammadova</b>	
Farg'ona viloyatida yo'ldosh shaharlar loyihasining ayrim jihatlari .....	224
<b>D.M.Abduraxmonov</b>	
Landshaftlarni funksional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar .....	230
<b>D.B.Kosimov</b>	
Chegara hududlaridagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni integratsiyasining nazariy asoslari .....	234
<b>H.N.Naimov</b>	
Landshaftlarni kartalashtirish va ulardan foydalanish masalalari (Shimoliy Farg'ona misolida) .....	239
<b>M.H.Otamirzayeva</b>	
Daryo havzasi landshaftlarining strukturasi va funksiyasini shakllantiruvchi tabiiy, biologik va ijtimoiy tizimlar .....	243
<b>U.Sh.Uktamov</b>	
Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining antropogen omillar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlari.....	248
<b>S.M.Xudoyberdiyeva</b>	
Talabalarda sport turizmi ko'nikmalarini shakllantirishda tabiat elementlarining o'rni .....	252
<b>T.D.Komilova</b>	
Hududlarning ekologik karkasini rejalashtirishda landshaft yondashuvidan foydalanish .....	257

**ERSHI SHAHRINING YUZAGA KELISHI VA RIVOJLANISHDA GEOMORFOLOGIK  
OMILLARINING O'RNI VA AHAMIYATI**

**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ГЕОМОРФОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ВОЗНИКНОВЕНИИ И  
РАЗВИТИИ ГОРОДА ЭРШИ**

**THE ROLE AND IMPORTANCE OF GEOMORPHOLOGICAL FACTORS IN THE EMERGENCE  
AND DEVELOPMENT OF THE CITY OF ERSHI**

**Ahmadaliyev Yusupjon Ismoilovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti  
geografiya kafedrasи professori, g.f.d.

**Abduvaliyev Xayitboy Abdug'anievich<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>Farg'ona davlat universiteti  
geografiya kafedrasи dotsenti v.b., g.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada qadimda geografik sharoiti qulay bo'lgan va aholisi bu imkoniyatdan oqilona foydalangan hududlarda yuzaga kelgan aholi maskanlari uzoq vaqt saqlanib qolganligi va rivojlanganligi ko'rib chiqiladi. Shaharlar antropogen omil ta'sirida (urushlar tufayli) vayron etilsa ham geografik o'r'in qulay bo'lgan joyda qayta tiklanaverganligi asoslanadi. Bu holat qadimgi Ershi aholi maskani misolida (Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Mingtepa tarixiy yodgorligi hududi) taxlil etiladi. Ershi shahrining shakllanishi, rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan tabiiy, iqtisodiy, transport va harbiy geografik o'rinda o'ziga xos qulayliklar, imkoniyatlar tahlil etiladi.*

**Аннотация**

*В данной статье рассматривается долговременное сохранение и развитие поселений, возникших в районах с благоприятными географическими условиями и жители которых рационально использовали эту возможность. Если города разрушены под воздействием антропогенных факторов (в результате войн), они заново восстановились в благоприятном географическом положении. Данная ситуация анализируется на примере городища Эрши (район исторического памятника Мингтепа Мархаматского района Андиканской области). Анализируется природное, экономическое, транспортное и военно-географическое положение, повлиявшее на формирование и развитие города Эрши.*

**Abstract**

*This article examines the long-term preservation and development of settlements that arose in areas with favorable geographical conditions and whose residents rationally used this opportunity. If cities were destroyed under the influence of anthropogenic factors (as a result of wars), they were rebuilt in a favorable geographical position. This situation is analyzed using the example of the Ershi settlement (the area of the historical monument Mingtепа, Markhamat district, Andijan region). The natural, economic, transport and military-geographical position that influenced the formation and development of the city of Ershi is analyzed.*

**Kalit so'zlar:** tabiiy-geografik omilla, landshaft, etnomadaniyat, adir orti botig'i, qulay geografik joylashuv, geomorfologik omil, iqlimiyl omil.

**Ключевые слова:** природно-географический фактор, ландшафт, этнокультура, заадырна впадина, удобное географическое положение, геоморфологический фактор, климатический фактор.

**Key words.** natural-geographical factor, landscape, ethniculture, behind-the-hill depression, convenient geographical location, geomorphological factor, climatic factor.

**KIRISH**

Insoniyat sivilizatsiyasini o'rgangan buyuk olimlardan biri Arnold Toyinbi Farg'ona vodiysini ikki marta insoniyat sivilizatsiyasining markazi bo'lganligini qayd etadi. Uning yozishicha, «Yaksart» (Sirdaryo) vodiysida joylashgan kichkina mamlakat eramizdan avvalgi II-asrdan boshlab oykumena (dunyonin insoniyat o'zlashtirgan qismi) markazi bo'lgan. Shubhasiz, olim bu yerda qadimgi Davon mamlakatini nazarda tutmoqda. Keyingi davrlardan “Boburning Farg'onasi dunyoning markazi bo'lgan, turklar esa Bobur davrida millatlar oilasida markaziy urug' xisoblangan» (Toynbi, 2011, 74-b). Bundan tashqari, bizningcha tarix charxpalagida Farg'ona yoki uning qadimiy markazi o'rnida qad rostlagan Mingtepa XIX asrning oxirida Muhammadali xalifa Sobir o'g'li - Dukchi Eshon rahbarligidagi ozodlik xarakati tufayli yana bir marta jaxon sahnasiga chiqdi.

Albatta, bir o'lkaning jahon tarixida muxim ahamiyat kasb etishida avvalo o'sha joyda yashagan xalqlarning o'rni beqiyosdir. Lekin o'sha donishmand xalqlar o'zlariga maskan qilib tanlagan joylarning tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklarida ham ma'lum ahamiyatli jihatlar bo'lgan. Quyida qadimgi Farg'onaning tabiatini va resurslari hamda ularning vaqt davomida o'zgarishi va

buning o'l kamizdag'i ijtimoiy hayotga ta'siri haqida fikr yuritmoqchimiz. Hozirda geografik determinizmning ma'lum darajada mavjud obyektiv holat ekanligini ijtimoiy soha vakillari ham e'tirof etmoqdalar. Keyingi yillarda davlatlarning yuzaga kelishida hisobga olinishi kerak bo'lgan omillar sifatida, mamlakatning joylashgan o'rni, o'lchamlari, iqlimi, tuprog'inining sifati, tabiiy boyliklari, aholining hayot tarzi, intilish va qiziqishlari, fe'l-atvori, odatlari aytilib, bunday qarash dastlab, Sh.Monteskye tomonidan ilgari surilganligi ta'kidlanmoqda.

Tarixiy voqeа va jarayonlarning borishiga, umuman jamiyatning rivojlanishida geografik omilning ahamiyatini to'la ochib berish, uning reaksiyon geografik determinizmdan farqli jihatlarini asoslagan olim, ushbu satrlar muallifi ma'rzasini tinglash nasib etgan ustoz, Sankt-Petrburg universiteti geografiya va geoekologiya fakultetida ishlagan, tarix hamda geografiya fanlari doktori, professor Lev Nikolayevich Gumilevdir. U o'zining «Etnogenez i biosfera zemli (1990) nomli asarida geografik landshaft (tundra, o'rmon, dasht, cho'l, tog', suvli muhit va b.) etnik jamoalarga majburan ta'sir etib, unda o'z izini qoldiradi, landshaft talabiga moslashgan turlargina yashab qoladi, o'zgalar esa boshqa landshaftlarga ko'chib ketishga majbur bo'ladi degan konsepsiyanı ilgari suradi. Bunday yondashuvning tarixiy xaqiqatni tiklashdagi samarali tomonlari haqida quyida Ershi shahri misolida to'xtalamiz, qolaversa, ona tabiatga yaratuvchi sifatida qarash xalqimiz qadriyatlariga zid emas. Geografik omillarning insonga ta'siri haqida to'xtalib, vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy, Sh.Monteskyeden 800-yil avval, shunday yozgan edi: «Odamlar tuzilishlarining rangi, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi, faqatgina nasablarning turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning, odamlar yashaydigan joylarning turlichaligidan hamdir» (Axmadaliyev, 2021).

Tarix sohasidagi izlanishlarda geografik yondashuv ahamiyatli ekanligi yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdi. Albatta, har qanday geografik tadqiqotlarda tarixiy yondashuv ham beqiyos ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash zarur. Bu haqida mashhur geograf N.N.Baranskiy shunday yozgan edi: «Fanda faqat tarixiy yondashishgina, uning rivojlanish yo'llarini, chetlab o'tilishi lozim bo'lgan boshi berk ko'chalarini ko'rsatadi, boshqa tomonдан erishilgan yutuqlar bilan tanishtirib, ikkinchi marta Amerika ochishdek keraksiz mehnatdan ozod qiladi» (Baranskiy N. N., 1980). Bu ikki fan vakillari o'rtasidagi hamkorlikdan maqsad haqiqatni bilish orqali jamiyatga ko'proq foyda keltirishdir.

Qadimda geografik sharoiti qulay bo'lgan va aholisi bu imkoniyatdan oqilona foydalangan hududlardagini aholi maskanlari yuzaga kelgan va ular uzoq vaqt saqlanib qolgan, rivojlangan. Shaharlar antropogen omil ta'sirida (urushlar tufayli) vayron etilsa ham geografik o'rın qulay bo'lgan joyda qayta tiklanaverган. Boshqa shaharlarda bo'lgani kabi Ershining ham aynan mazkur hududda (Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi Mingtepa tarixiy yodgorligi hududida) shakllanib, rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan tabiiy, iqtisodiy, transport va harbiy geografik o'rnda o'ziga xos qulayliklar, imkoniyatlari mavjud.

Ershining Farg'ona vodiysining Janubi-sharqiy qismida, alohida kichik vodiylari xisoblangan Oyim-Xo'jaobod-Marhamat adir orti botig'ida yuzaga kelishidagi vodiyning boshqa joylaridan farq qiluvchi tabiiy-geografik qulayliklari, imkoniyatlari (geomorfologik, iqlimi, gidrologik, landshaft) o'rganib chiqildi.

Farg'ona vodiysidagi dastlabki aholi manzilgohlari, shu jumladan, Ershining paydo bo'lishida uning geologik tuzilishi, tektonikasi va relyefning ta'sirini o'rganishda biz geologiya tarixida asoslab berilgan, O.A.Rijkovning (1952-1954), S.S.Shuls (1934-1948), N.P.Vasilkovskiy (1935, 1951), N.M.Sinitsin (1948), V.I.Popov (1954) kabi olimlar tomonidan e'tirof etilgan xulosalarga asoslandik (Xoliqov, 2020).

Farg'ona vodiysini orografik tuzilishi uning uzoq davom etgan geologik tektonik rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, uning shakllanishi esa aynan shu harakatlar natijasi hisoblanadi. Relyefning hozirgi holatini olishi uchun Farg'ona vodiysi bir qancha geologik tektonik jarayonlarni boshidan kechirdi.

Farg'ona vodiysi tektonik botiq sifatida paleozoy erasida tarkib topgan. Vodiyya hududida quruqlik hamma yerda bir vaqtida paydo bo'lmagan. Vodiyni o'rab to'rgan tog'larda quruqliknинг paydo bo'lish jarayoni paleozoyda, adirlar qismida mezozoyda, vodiyning tekislik qismida antropogen davrda ro'y bergen. Relyefning xozirgi ko'rinishi to'rtlamchi davrda shakllansa ham uning negizi birmuncha qadimgi jarayonlar bilan ham bog'liqdir. Vodiyligi reliyefi turli era va davrlarda o'z qiyofasini o'zgartirib borgan. Uchlamchi davrlargacha bo'lgan geologik-tektonik jarayonlar butunlay suvli muhitda sodir bo'ldi, yuvilish jarayoni ayniqsa, mezozoydag'i yemirilish jarayonlari birlamchi reliyefni kuchli o'zgarishga sabab bo'ldi. Tog' xalqlari dengiz yuzasida orol tarzida

ko'rinib turar edi. Keyinchalik kuchli denudatsiya bunday holatni ham o'zgartirdi. Peneplen jarayonlari faollashdi.

Bu davr uchun Farg'ona vodiysidagi muhim geomorfologik jarayonlar adirlarni xalqa singari doira hosil qilib ko'tarilishi va buning natijasida markaziy Farg'ona relyefining ham o'zgarishi sodir bo'ldi. Tekislik qismini kichrayishi bilan vodiyni atrofidan markazga oqib tushuvchi daryo va soyliklar yangi tektonik ko'tarilmalarni parchalab, ularning oralig'ida adirlararo cho'kmalarni hosil qildi.

Ayni vaqtida N.V.Veber (1928) ta'rif berganidek Farg'ona vodiysida quruq deltalarining migratsiyasi sodir bo'ldi. Daryolar adirlar xalqasidan o'tib vodiyni tekislik qismiga yetgunga qadar adir oldi va adir orti hududlarida tashqi konus yoyilmalarini hosil qildi. Konus yoyilmalari Farg'ona vodiysida geomorfologik jihatdan original hududlar hisoblanadi. Ular yelpig'ichsimon tuzilishga ega bo'lib, quruq o'zanlar bo'ylab shag'alli, qumli, loyli yotqiziqlardan iborat qiya va to'lqinsimon, quyi va chekka qismlariga pasayib boruvchi tekisliklar qiyofasini olgan.

Adirlar hududida denudatsion yuzalar hosil bo'ldi va Farg'ona vodiysidagi turli geomorfologik birliklar o'ziga xos zinapoyasimon relyefga ega bo'ldi. Shunday qilib Farg'ona vodiysi adirlari uchun zinapoyasimon relyef shakkiali xos bo'lib, ularning hosil bo'lishi, denudatsion yuzalarda sodir bo'lgan tektonik harakatlar va ularni pauzali davomliligi bilan bog'liqdir. Bu strukturalar o'ziga xos «Pog'onasimon» relyef shaklini o'zida aks ettirib bir joyda birmuncha oddiy, ikkinchi joyda esa murakkab relyef ko'rinishlarini hosil qildi. Ularni hosil bo'lishi bir qancha denudatsion yuzalarni qatnashuvi bilan yuzaga keldi. Murakkab relyef formalarining ikkinchi tipi esa ijobjiy relyef formalari ta'sirida yuzaga keldi.

Adirlar hududi relyefini pog'onali bo'lishining sabablardan biri ular orqali oqib o'tgan daryo va soyliklar bo'lib, adirlar hududini bo'lib yuborgan va ularni ajratib turuvchi chegaralar hisoblanadi. Bunday zinapoyasimon denudatsion relyef Farg'ona vodiysining adirlar qismi uchungina xos bo'lmay, balki tog' burmalarining vodiya qaragan yonbag'irlarida ham uchraydi.

Huddi shunday botiqlardan biri sanalgan Oyim-Xo'jaobod-Marhamat adir orti botig'ida Erish shahri joylashgan. Bu hudud Farg'ona vodiysining sharqiy qismida eng katta maydonni egallaydi. Adir orti cho'kmasining geologik zaminida Qoradaryo, Oqbo'ra, Aravonsoy, Obshirsoy, Jingilsoy kabi soyliklarning keltirgan jinslari qalin yotqiziqlarni tashkil etadi. Bunday yotqiziqlar konus yoyilmalarining periferik qismlarida qalinlashib boradi. Daryo va soyliklar adirlar xalqasini kesib o'tib bo'ylama vodiylardan iborat qiya tekisliklarni hosil qilgan. Bu tekisliklar Sirdaryo va Qoradaryo tomonga asta-syokin pasayib borib markaziy Farg'ona yo'nalishida tutashib ketadi. Mazkur tekislikni shimol tomonidan Quva-Andijon gryada adirlari o'rab turadi va janubi-g'arbdan shimoli sharqqa tomon Qoradaryo vodiysigacha bo'lgan maydonlarni egallaydi. Bu hudud Farg'ona vodiysining Janubi-sharqiy qismida alohida kichik vodiyni, ya'ni **Oyim-Xo'jaobod-Marhamat adir orti** botig'i tashkil qiladi. U joyda iqlim, suv resurslari, o'simlik va hayvonot dunyosi vodiyning boshqa joylaridan oldinroq quruqlikga aylanganligi hamda foydalanish imkoniyatlari qulayligi bilan ajralib turadi.

**Oyim-Xo'jaobod-Marhamat adir orti** botig'i shimol tomonidan Quva-Andijon gryada adirlari tizimiga kiruvchi Nayman, Polvontosh (Qora adir), Asaka, Bo'ston, Chang'irtosh va Janubiy Olamushuk adirlari bilan o'ralgan. Qoradaryoning konus yoyilmasi yuqori qismidan janubi-sharqiy yo'nalishda Sultonobod adirlari joylashgan. Janubi-sharqiy yo'nalishda joylashgan adirlarning ham relyefi juda murakkab, ayniqsa, Andijon, Asaka adirlari birmuncha baland bo'lishiga qaramasdan qiya yonbag'irlarga ega. Quruq jilg'alar, soyliklar hosil qilgan tor vodiylar adirlar relyefida yaqqol ifodalananadi. Ularning litologik tarkibida konglomerat, shag'al, qumtosh, mergel kabi jinslar kuchsiz sementlashgan qalin qatlamlarni hosil qiladi. Adirlarni baland qismlarida yirik jinslar yer yuzasiga chiqib yotsa yonbag'ir va etaklarida qalin lyossli qatlamlar uchraydi.

**Oyim-Xo'jaobod-Marhamat adir orti** botig'ining janubiy qismini tog' oldi zonasasi egallaydi. Bu hudud adirlar va baland tog' zonasasi oralig'ida joylashgan bo'lib balandligi 2000 m gacha ko'tarilib boradi. Aksariyat holatlarda tog' oldi zonasiga adirlar zonasasi yaqinlashib keladi va tektonik bukilmlar ularni ajratib turadi. Farg'ona vodiysining janubi-sharqiy hududlari Oloy-Farg'ona tizmalari etaklarini egallab olgan. Oloy tizmalari etaklaridagi tog' oldi hududi Aravonsoy va Oqbo'ra soyliklarning oralig'idagi baland va qiya tekisliklarni egallab, alohida ko'tarilgan tog' massivlari ham uchraydi. Masalan, *Ulug'tog'* massivi 1300 m dan baland ko'tarilgan janubi-sharqida *Chilustun*, undan sharqroqda *Qirtosh* tog' massivlari ko'tarilgan bo'lib, balandligi 1200 m dan ortadi. Tog' massivlari kuchli denudatsiyaga uchragan, litologik tarkibi asosan paleozoyning devon davri kristallahgan ohaktoshlari va metamorfik slanetslaridan iborat.

Oyim-Xo'jaobod-Marhamat adir orti botig'ini janubi-g'arb tomonidan Oloy, sharqdan va shimoliy-sharqdan Farg'ona va Sumsar tizmalari o'rab turadi. Bu tog'lar G'arbiy Tyan-shan tog'lar tizimiga kirib, Farg'ona vodiysi deyarli berk kotlovina holatini keltirib chiqaradi. Farg'ona vodiysi o'rab olgan tog'lar tarkibida uning janubiy va janubi-g'arbiy qismida joylashgan. Oloy va Turkiston tog'lari mutloq balandliklari bo'yicha baland vao'rtacha, balandlikdagi tog'lar (2000-3000 m)ga ajralib turadi.

### XULOSA

*Demak*, Geologik-geomorfologik nuqtai-nazardan baxo berilsa, kishilik jamiyati foydalanishi, o'zlashtirishi uchun eng qulay joylar dastlab tog' yonbag'irlari, adir va adir orti botig'larida yuzaga kelgan. Bu davrda Farg'ona vodiysining markaziy qismi qoldiq ko'l havzasi, daryo vodiylari esa to'qay va chakalakzorlar bilan band bo'lib, insonlarning o'zlashtirishlari uchun noqulay bo'lgan.

Geomorfologik jihatdan qulay bo'lgan hududda Ershi shahrining yaratilganligi dono ajdodlarimizning aql-zakovatidan, kuzatuvchanligidan dalolat beradi. Shahar sharq va janubdan Kichik Oloy tizmasinig «Ulug' tog'» va «Chilustun» tog'lari hamda shimoldan Asaka adirlari va g'arbdan Polvontosh, Quva adirliklari bilan o'ralgan. Bu o'sha davr nuqtai nazaridan baholansa, chorvachilikni (ayniqsa yilqichilikni) rivojlantirish uchun qulay yaylovlari, lalmikor dehqonchilik uchun mos qirlar hamda kichik soylar orqali sug'orish ishlarini tashkil etish uchun qulay relyefga ega hudud hisoblangan.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Тойнби А. Дж. Цивилизация перед судом истории: Сборник / Пер. с англ. — М.: Рольф, 2002. — 592 с. / Toynbee A. J. Civilization before the court of history: Collection / Trans. from English - M.: Rolf, 2002. - 592 p.
2. Гумелев Л.Н. Этногенез и биосфера Земли. Л.: Гидрометеоиздат, 1990 / Gumilev L.N. Ethnogenesis and biosphere of the Earth. L.: Gidrometeoizdat, 1990
3. Баранский Н. Н. Избранные труды. Научные принципы географии (под. ред. В.А.Анучина и др.) - М.: Мысль, 1980. С.87. / Baransky N. N. Selected works. Scientific principles of geography (ed. V.A. Anuchin and others) - M.: Mysl, 1980. P.87.
4. Аҳмадалиев Ю.И. Этноэкология (географик жиҳатлари). – Фарғона: 2021. – 250 б. / Ahmadaliev Yu.I. Ethnoecology (geographic aspects). – Fergana: 2021. – 250 p.
5. Холиков Р.Й .Фарғона водийси. Т.: Наврӯз нашрёти, 2020.168 б. / Khalikov R.Y. Fergana Valley. T.: Navroz publishing, 2020.168 p.
6. Вебер В.Н. Миграция сухих дельт в Фергане. Геологический вестник, т 7, № 1-8, 1929-1930. / Weber V.N. Migration of dry deltas in Fergana. Geological Bulletin, v. 7, no. 1-8, 1929-1930.